

**SUD-BALLISTIK EKSPERTIZASINING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI
TAHLILI**

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi

Kriminalistik ekspertizalar kafedrası o‘qituvchisi

Gulamov Sunnatali Sunnatali o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi 3-bosqich kursanti

Boqijonov Samandar Abdurahmon o‘g‘li

Annotatsiya: Maqolada sud-ballistik ekspertizasining zamonaviy yondashuvlari, zamonaviy tadqiqot obyektlari, sud-ballistik ekspertizasini o‘tkazish jarayonida yuzaga keladigan kamchiliklar, bugungi kundagi yechimlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Sud-ballistik ekspertizasi, sud-ballistik ekspertizaning tadqiqot obyektlari, klassifikatsion vazifalar, o‘qotar qurollar, o‘qdorilar, polimerli kompozit materiallar, liberator to‘pponchasi.

Annotation. The article describes modern approaches to forensic ballistic expertise, modern research objects, shortcomings that arise in the process of conducting forensic ballistic expertise, and current solutions.

Keywords. Forensic ballistic examination, objects of forensic ballistic examination research, classification tasks, firearms, ammunition, polymer composite materials, "Liberator" pistol.

Аннотация. В статье описаны современные подходы к судебно-баллистической экспертизе, современные объекты исследования, недостатки, возникающие в процессе проведения судебно-баллистической экспертизы, а также актуальные пути их решения.

Ключевые слова. Судебно-баллистическая экспертиза, объекты исследования судебно-баллистической экспертизы, задачи классификации, огнестрельное оружие, боеприпасы к нему, полимерные композиционные материалы, пистолет "Либератор".

Sud ballistikasi–kriminalistik texnikaning, o‘qotar qurollar, ularning patronlari va ularning qism va mexanizmlari hamda tarkibiy qismlari, o‘qotar qurollar va patronlarning ishlatish izlari bo‘yicha ma‘lumotlarni aks etishi va olish qonuniyatlarini o‘rganadigan, jinoyatlarni ochish va tergov qilish hamda jinoyatchilikni oldini olish maqsadida o‘qotar qurollar, ularning patronlarini, qism va mexanizmlarini, tarkibiy qism ob’ektlarni aniqlash, qayd etish, olish, saqlash va tadqiqot qilish uchun texnik usullar, vosita va metodlar ishlab chiqadigan bir sohasidir. Ballistik ekspertiza–qonunda belgilangan protsessual shaklda tegishli ekspert xulosasini rasmiylashtirish bilan, tergov harakatlari va sud muhokamasi jarayonida o‘qotar qurol, o‘q-dorilar va ularning ishlatish

20-May, 2025-yil

izlari haqidagi ilmiy asoslangan ma'lumotlarni olish maqsadida o'tkaziladigan maxsus ekspertiza tadqiqotlaridir. Sud-ballistik ekspertizasi o'qotar qurollar ularning tarkibiy qismlarini, o'qdorilar, patronlar bilan sodir etilgan jinoyatlarda protsessual jihatdan isbotlash jarayonida asosiy o'rinlarni egallaydi. Sud-ballistik ekspertizasining tadqiqot obyektlari:

- buyumlar, o'qotar qurollar va ularga o'xshash qurilmalar;
- qurollarning alohida qismlari va qurollarning tarkibiy jihozlari, qurollar saqlangan joylar;
- jarohatlar: o'q tekkan buyumlardagi o'q yoki sochma o'q tegishidan hosil bo'lgan teshiklar, yoriqlar, ular atrofidagi kuyishlar; snaryad, gilza va pijlar deformatsiyalangan va ajralgan bo'laklari;
- zaharlovchi (ko'zni yoshlantiruvchi, nafasni bo'g'uvchi), tutun hosil qiluvchi, bo'yovchi ampulalar va boshqa zaryadlar bilan otuvchi qurilmalar;
- o'qotar qurol hisoblanmaydigan, ammo ularga o'xshash buyumlar, masalan, qurilish montaj to'pponchalari, gaz-signal qurol va moslamalari;
- jangovar o'q-dorilar, ya'ni patronlar va ularning alohida qismlari (gilza, kapsul, o'qlar, sochma o'q, kartechni (pitra), bo'linib ketgan o'qlarning parchalari va boshqa);
- qurol stvollarining ishib va yorilib ketishi, qurolning alohida qismlarining buzilishi;
- miltiq patronlari gilzalarini bilan jihozlash uchun mo'ljallangan maxsus moslamalar;
- o'qotar qurol va jangovar o'q-dorilarning tayyor bo'lmagan va yarim tayyor alohida qismlari, ularning chizmalari va qolip-nusxalari, nomerli belgilar yozish uchun maxsus moslama-puansonlar;
- moddalar: tutunli va tutunsiz porox va uning tarkibiy qismlari hamda gugurt donalari dorisi;
- jarohatlangan buyumlardagi o'q tegishidan hosil bo'lgan va qurol, gilza, o'q, pijlardagi qurum, quroldan otgan shaxsning qo'llaridan olingan qurum;
- moddiy qayd etiluvchi akslar, o'q va gilzalardagi, ularni mahkamlash uchun ishlatilgan asbob-uskuna va otish uchun ishlatilgan qurol qismlaridan qolgan ezilish va shilinishlar;
- snaryadlardagi, ularni tayyorlashda ishlatilgan press-shakl hamda gilza og'zidan qolgan ezilish va shilinishlar;
- jarohatlangan buyumdagi, o'q tegishidan hosil bo'lgan teshik atrofidagi, qurol stvoli oldi kesimining aksi (shtansmarka); o'q tegishidan hosil bo'lgan kirish jarohatlari atrofidagi, snaryadlarning ishqalanish ta'sirida vujudga kelgan halqa – ishqalanish halqasi.[1]
- soyli stvolli o'qotar qurol;
- silliq stvolli o'qotar qurol, shu jumladan soyli qismining uzunligi bir yuz qirq millimetrdan oshmaydigan o'qotar qurol;
- kombinatsiyalangan (soyli stvolli va silliq stvolli) o'qotar qurol, shu jumladan almashtiriladigan va joylashtiriladigan soyli stvolli o'qotar qurol;
- signal beruvchi qurol;
- soyli stvolli o'qotar qurol;

- silliq stvolli o‘qotar qurol;
- og‘iz qismidagi quvvat 3 jouldan yuqori bo‘lgan pnevmatik qurol;
- signal beruvchi qurol;
- gazli qurol ko‘zdan yosh oqizadigan yoki achishtiradigan moddalar bilan to‘ldirilgan gazli ballonchalar, mexanik purkagichlar, aerezolli qurilmalar va boshqa qurilmalar;
- boshqa ashyolarning shaklini takrorlovchi o‘qotar qurol;
- soyli stvolli o‘qotar qurolning patronlariga moslab tayyorlangan silliq stvolli o‘qotar qurol;
- stvolsiz o‘qotar qurol (patron gilzasi stvol sifatida foydalaniladigan qurol);
- 3D-printerida polimer va kompozit materiallardan chiqarilgan o‘qotar qurollar hisoblanadi.[5]

Hozirgi kunda zamonaviy sud-ballistik ekspertizasini hal etishda ekspert-kriminalistlar tomonidan quyidagi savollarga javob topilmoqda:

- Klassifikatsion turdagi vazifalarni bajarishda:–taqdim etilgan buyum o‘qotar qurollarga va o‘q-dorilar turkumiga tegishlimi?
- taqdim etilgan qurol qaysi tizim, model, namunaga taalluqli?
- taqdim etilgan qurolning (patron) kalibri qanday?
- tekshirilayotgan patronlar qurolning qaysi turiga, tizimiga taalluqli?
- berilgan o‘q va gilza qaysi model va namunaga taalluqli?
- berilgan o‘q qaysi usulda tayyorlangan?[1]

Insoniyat o‘z taraqqiyoti davrida foydalangan materiallar, rivojlanish bosqichlarida hamma vaqt ham muhim va ko‘p hollarda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan. Hattoki, taraqqiyot bosqichlari ular bilan bog‘lanib, tosh asri, bronza asri, temir asri kabi nomlar olgan. Bugungi kunda barcha sohalarda foydalanilayotgan materiallar turkumining ko‘lamiga ko‘ra, asrimizni polimerli kompozit materiallar asri deb atalsa mubolag‘a bo‘lmaydi. Inson hayotida polimerlarning ahamiyati shu qadar kattaki, kishilarning turmush darajasi haqida bu materiallarni iste‘mol ko‘lamiga qarab fikr yuritish mumkin. [2]

Insoniyatning aqliy qobiliyati tufayli polimerli kompozit materiallardan o‘qotar qurollar ham ishlab chiqarilmoqda.Shunday qurollardan biri Amerika Qo‘shma shtatlaridaishlab chiqarilgan “Liberator” deb nomlangan 3D-bosma to‘pponchasidir.Qurol deyarli butunlay ABS plastmassadan “Lego” ishlab chiqarilgan materialdan qilingan. U faqat ikkita metall elementga ega.Uning sud-ballistik ekspertiza tadqiqoti jarayoni murakkab jarayonlarni qamrab oladi.Chunki plastmassa materialida xususiy identifikatsion belgilarning qolishi qiyin kechadi.

Zamonaviy polimerli kompozit materialdan tayyorlangan “Liberator” to‘pponchasi ustida klassifikatsion savollarga javob berish mumkin.[3]Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish yo‘nalishida, hayotdan jinoyatchilikni umuman siqib chiqarishning prinsipial shartlaridan biri har qanday jinoyatni tez va to‘liq ochich hamda sodir etilgan jinoiy qilmish uchun aybdorga nisbatan qonunda belgilangan jazo choralarining muqarrarligini ta‘minlashdir.Ma‘lumki, jamiyat hayotidagi ayrim jinoyatlar turli xil o‘qotar qurollar va qurolga o‘xshash buyumlar ishlatib

20-May, 2025-yil

sodir etilgan jinoyatlarda jinoyatchi shaxsning qilmishi jinoyatni og'irlashtiruvchi holat deb tushuniladi. Qurol ishlatish esa odamning hayoti va sog'lig'i uchun go'yat katta xavf-xatarni vujudga keltiradi. O'qotar qurollar bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlarda sud-tibbiy ekspertizasi jarayonida ham alohida tartibda tadqiqot qilinadi. [4] Mamlakatimizda huquq-tartibot, sud-huquq tizimini, qonun ustuvorligini ta'minlash maqsadida maqsadli va tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, sud-ballistik ekspertizasini rivojlantirish maqsadida bir qancha zamonaviy xorijiy tajribalarni qo'llagan holatda qonun hujjatlari qabul qilindi. Yangicha ekspert-kriminalistik laboratoriyalar barpo etildi. Hukumatimiz tomonidan 2019-yil 29-iyuldagi O'RQ-550-sonli "Qurol to'g'risida"gi [5] va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-fevraldagi "Ichki ishlar organlarining Ekspert-kriminalistika faoliyatini zamonaviy ilm-fan yutuqlarini keng joriy etgan holda yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlari [6] qabul qilindi. Ushbu qonunlarning qabul qilinishi ekspert-kriminalistika faoliyatini zamonaviy bo'lgan maqsadli va tizimli chora-tadbirlarni belgilab berdi. Bugungi kunda turli jinoyatlarni ochish va tergov qilishda o'qotar va jangovar o'q-dorilarning kriminalistik ekspertizasi tufayli jinoyat olamida sodir etilayotgan o'qotar qurollar bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlarni ochishda, aynan sud-ballistik ekspertizasi isbotlash jarayonining muhim bosqichi bo'lib kelmoqda. Chindan ham sud-ballistik ekspertizasini normativ jihatdan tartibga solinishi aynan ushbu sohadagi yechilmas muammolarga yechim topadi. Ushbu soha takomillashib borar ekan inson huquqlari yuqori pog'onalarga yuz tutadi. Zero, bu olamdagi barcha narsalar inson qadri uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://sudex.uz/?page_id=54 .
2. <https://www.forumdaily.com/uz/v-ssha-sdelayut-legalnym-rasprostranenie-v-internete-planov-oruzhiya-dlya-3d-printera/> .
3. Karimov I.A Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. -T., 2010. -B.11.
4. <https://elibrary.namdu.uz/30%D0%A2%D0%B5%D1%85%D0%BD%D0%B8%D0%BA%D0%B0%20%D1%84%D0%B0%D0%BD%D0%BB%D0%B0%D1%80/Poli%20merli%20kompozit%20materiallari%20fizikasi.Umarov.A.V.pdf>.
5. <https://lex.uz/docs/-4445288?ONDATE=14.03.2022>. "Qurol to'g'risida"gi qonuni.
6. <https://lex.uz/uz/docs/-> "Ichki ishlar organlarining ekspert-kriminalistika faoliyatini zamonaviy ilm-fan yutuqlarini keng joriy etgan holda yanada takomillashtirish chora